

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XITOY XALQ RESPUBLIKASI DAVLATLARI O'RTASIDAGI "YASHIL IQTISODIYOT" NI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA HAMKORLIK

Raimjonova Nilufar

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Geologoya va muxandislik geologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi*

Raimjonova Ra'no

*Guliston davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizning hozirgi kunda Yashil iqtisodiyotni rivojlanirish uchun qilayotgan sa'y-harakatlari va kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlari yoritilgan. Ya'ni maqolada O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ish yuritilayotganligi haqida, ayniqsa Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlari, ko'zlangan maqsad va rejalar haqida yoritilgan. Bundan tashqari Xitoy kampaniyalari bilan tuzilgan shartnomalar ularning biz uchun ahamiyati haqida malumot keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Yashil iqtisodiyot, muqobil energiya, ekologik muamolar, Yashil moliyalashtirish, Yashil ipak yo'li, Sun-Hightech, Get-Green energy trade, Yagona Xitoy.

Аннотация: В статье описаны текущие усилия нашей страны по развитию зеленой экономики и работы, которую предстоит проделать в будущем. То есть в статье описана работа Республики Узбекистан во взаимодействии с зарубежными странами, особенности работы, проводимой во взаимодействии с Китайской Народной Республикой, намеченные цели и планы. Кроме того, в договорах, заключенных с китайскими кампаниями, дается информация об их важности для нас.

Ключевые слова: «зеленая» экономика, альтернативная энергетика, экологические проблемы, «зеленое» финансирование, «Зеленый шелковый путь», «Sun-Hitech», торговля энергией «Get-Green», «Единый Китай».

Abstract: The article describes the current efforts of our country for the development of the Green Economy and the work to be done in the future. That is, the article describes the work of the Republic of Uzbekistan in cooperation with foreign countries, especially the work carried out in cooperation with the People's Republic of China, the intended goals and plans. In addition, the agreements concluded with Chinese campaigns are given information about their importance for us.

Key words: Green economy, alternative energy, environmental problems, Green financing, Green Silk Road, Sun-Hightech, Get-Green energy trade, One China.

Yashil iqtisodiyot – bugungi kunda eng dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. Mamlakatimizda

yashil iqtisodiyot rivojlanishga erishishadigan bo‘lsa, boshqaruv sohasini yanada rivojlantirish va yaxshi darajaga chiqishini ta’minlaydi. Mamlakatga kirib keladigan mahalliy va xorijiy investitsiyalarni uchun rivojlangan va tahlil qilinadigan makroiqtisodiy muhitga ega bo‘lish juda muhim omil hisoblanadi.

Mamalakatimizga yashil iqtisodiy muhit ham shaffof bo‘lishi kerakligini talab qiladi. Boshqaruv jarayonida yaxshi va kuchli boshqaruv tizimi bo‘lmasa, barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tish ehtimoli juda kam bo‘ladi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantrishda samarali institutlar va boshqaruv tuzilmalari, rejalar va dasturlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning o‘rni haqida gap borar ekan. Bugungi kunga kelib nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyo bo‘yicha yashil iqtisodiyotning o‘rni juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shu jumladan hususan ekologiyaning buzilishining oldini olish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektorni jalb qilishning o‘rni va afzalliklari hamda yurtimizning yashil iqtisodiyotga o‘tishi va xususiy sektorni iqlimi yaxshilashga yo‘naltirilgan loyihalarini amalga oshirish hamda ustuvor sohalarni dekarbonizatsiya qilish. Xususan O‘zbekiston hududida sanoat, ishlab chiqarish, koxonalar va texnikalarning modernizatsiyalashda yashil iqtisodiyotning o‘rni muhim sanaladi.

Joriy yilda “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusiga o‘n yil to‘ldi. U tarixan qisqa davrda ko‘plab tarafdarlariga ega bo‘ldi va xalqaro hamkorlikning yangi modeliga aylandi. Ayni damda ushbu g‘oya Xitoy Xalq Respublikasi Raisi tomonidan ilk bor 2016-yilda aynan bizning mamlakatimizda e’lon qilingani chuqur ramziy ma’noga ega. Umuman olganda, O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi bilan ko‘p qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirish tarafdoi. Xususan, har tomonlama strategik sheriklikni yangi davrda rivojlantrish bo‘yicha besh yillik dastur amalga oshirilmoqda. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

Keyingi yillarda Xitoy investitsiyalari hajmi besh barobar, qo‘shma korxonalar soni uch barobar ko‘paydi. Joriy yil boshidan buyon o‘zaro savdo hajmi 36 foizga oshdi. Yil yakunigacha ushbu ko‘rsatkich 10 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Tovar ayirboshlashni yaqin besh yilda 20 milliard dollarga yetkazish uchun barcha asoslar bor. “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumi, Inson va tabiat uyg‘unligi yo‘lida “Yashil ipak yo‘lini” birgalikda barpo etish” mavzusidagi yalpi yig‘ilish asosiy tadbirdaridan bo‘ldi. Unda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham nutq so‘zladi. O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib “Makon va yo‘l” tashabbusini qo‘llab-quvvatlaganini alohida qayd etdi.

Mamlakatimiz mazkur tashabbusning asosiy maqsad va vazifalarini yanada ilgari surishning qat’iy tarafdoi ekanligi bildirildi. Prezidentimiz “Yashil ipak yo‘li” tashabbusi mohiyat e’tibori bilan umumiyy “yashil” kelajak kun tartibini shakllantirishini ta’kidladi.

Xususan, O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan maxsus rezolyutsiya doirasida Orolbo‘yida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududlarini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturni amalga oshirmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasining yetakchi kompaniyalari bilan birgalikda va boshqa xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, “yashil texnologiyalar”ni keng joriy qilish asosida sanoat

sohasida va muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dasturlarni amalga oshirish uchun Orolbo‘yi mintaqasida Maxsus namunali texnologik parkni tashkil etishga tayyorligini takidlab o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Orolbo‘yi xalqaro innovatsiyalar markazi negizida “yashil” bilim va yechimlarni transfer qilish bo‘yicha ilmiy-axborot platformasini ishga tushirish tashabbusini ilgari surdi. Kam uglerodli iqtisodiyot va “toza” texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, mintaqa mamlakatlarida yuqori ekologik standartlarni joriy etish maqsadida O‘zbekistonda “Yashil moliyalashtirish” jamg‘armasini ta’sis etishni taklif qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston yetakchisi “yashil” mahsulotlar, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘zaro savdosidagi cheklov va to‘sirlarni kamaytirishga chaqirdi.

“Yashil energetika” yo‘nalishida Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlik kengaymoqda. Bunga misol qilib mamlakatimizda 2023-yilning 26-oktabr sanasida bo‘lib o‘tgan biznes-uchrashuvni aytishimiz mumkin. Toshkent shahrida “UzEnergy Expo-2023” ko‘rgazmasi doirasida “Yashil energiya barcha uchun” mavzusida biznes-uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

“O‘zeltexsanot” uyushmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan, mahalliy va xitoylik ishbilarmonlar ishtirot etgan mazkur tadbirda qayd etilganidek, yer yuzidagi neft, gaz zaxirasi cheklangan, qolaversa, kabi an’anaviy energiya manbalarining tabiatga zarari ko‘p. Shu bois rivojlangan davlatlar “yashil” energetikaga o‘tmoqda. Bu jarayon kelajak uchun juda muhim. Mamlakatimizda ham ayni yo‘nalish salmoqli ishlar boshlangan. 2019-yil 21-mayda “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Bundan tashqari o‘ndan ortiq qaror va farmon imzolangan soha rivojiga asos bo‘lmoqda. Xorijiy investorlar jalb etilib, ko‘plab istiqbolli loyihalar ishlab chiqildi. Tadbirkorlarga erkin raqobat muhiti yaratib berildi. Sohada katta bozor ochilishi natijasida quyosh elektr stansiyalarini to‘g‘ri loyihalash, o‘rnatish, montaj qilish va ishga tushirish ko‘nikmasiga ega korxonalar safi kundan-kunga kengayib, sifat borasida yuqori natijalar qayd etilyapti.

Xulosa qilib aytganda “Bir makon bir yo‘l” tashabbusida amalga oshirilgan ishlar, yurtimizdagи Yashil iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga, yangi loyihalar, rejalar tuzilib ularni amalga oshirishda poydevor bo‘ldi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish mamlakatimizda ishsizlik darajasini kamaytirishga, hozirgi kunda kamayib borayotgan foydali qazilmalardan samarali foydalanishga, suv resurslaridan oqilona foydalanishga sezilarli darajada yordam beradi. Bundan tashqari mamlakatimiz hozirgi kunda dunyoning rivojlangan davlatlari bilan hamkorlik qilayotgani ham yashil o‘sishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, Xitoy bilan hamkorlikda turli xil korxonalarning bunyod etilishi bu sohada olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarning nishonasidir. Misol uchun Xitoy bilan hamkorlikda olib borilayotgan “Yashil energetika” yo‘nalishida ham hamkorligimiz kangaymoqda. Bunning isboti sifatida 2023-yilning 26-oktabr sanasida bo‘lib o‘tgan biznes-uchrashuvni aytishimiz mumkin. Bu boradagi barcha ishlar O‘zbekistonda yashi energetikaga o‘tish uchun samarali yo‘l xisoblanadi.